

Uzbekistan Airways biznes-klass yo'lovchilari uchun yangilangan yo'l to'plamlarini taqdim etadi

2025 19 Dekabr

Yangi yil arafasida Uzbekistan Airways bortda xizmat ko'rsatish darajasini izchil oshirishni davom ettirib, biznes-klass yo'lovchilariga yangilangan yo'l to'plamlarini taklif etadi. Yangi to'plamlar parvoz paytidagi qulaylik, funksionallik va zamonaviy premium xizmat ko'rsatish standartlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Yangi yo'l to'plamlari oldingi seriyalardan sezilarli darajada ustun: ular yanada puxta o'ylangan, amaliy va keyinchalik foydalanish uchun qulayroq bo'ldi. Funksional to'ldirish, zamonaviy dizayn va sifatli materiallar butun parvoz davomida g'amxo'rlik va qulaylik hissini uyg'otadi.

To'plamlar nafis ranglar gammasida tayyorlangan: uzoq masofali qatnovlar uchun ko'k va to'q qizil tuslar, o'rta masofali yo'nalishlar uchun kulrang va qora tuslar.



Yo'l to'plami tarkibi

Shippaklar (tapochkalar)

Shippaklar qulay va funksional o'lchamda, qalinlashtirilgan taglik bilan ishlab chiqilgan. Sifatli materiallar tufayli shippaklar bir martalik emas – yo'lovchilar ularni o'zlari bilan olib ketib, uyda yoki mehmonxonada foydalanishlari mumkin.

Shippaklarga yo'lovchilar o'z poyabzallari, etiklarini yoki krossovkalarini soladigan amaliy mato xaltacha qo'shilgan. Xaltacha yuk javoniga yoki o'rindiқ ostiga qulay joylashtiriladi, bu esa salonda tartib va qo'shimcha qulaylikni ta'minlaydi.

Uyqu niqobi

Uyqu niqobi oldingi versiyalarga nisbatan takomillashtirilgan. Silliqlik va yumshoqlik mato yuz terisi va ko'zlarga yoqimli, sozlanadigan elastik rezina esa qulay o'tirish va dam olish paytida yorug'likdan ishonchli himoyani ta'minlaydi.



Taroq

Yangilangan taroq mini-massaj cho'tkasi shaklida tayyorlangan. U ixcham o'lchamni funktsionallik va yo'lda foydalanish qulayligi bilan uyg'unlashtiradi.

Shuningdek, to'plamga quloq tiqinlari, tish tozalash to'plami (tish pastasi va tish cho'tkasi) hamda parvarish kosmetikasi kiradi.

Aigner kosmetikasi

Yangi yo'l to'plamida Aigner kosmetikasining mini-formatlari taqdim etilgan. 1965-yilda Myunxenda asos solingan Yevropa brendining falsafasi nemis aniqligini, italyan nafosatini va premium tarkibiy qismlardan foydalanishni o'zida mujassam etgan.



Aigner qo'l kremi

Kundalik parvarish uchun yengil krem:

- qo'l terisini chuqur oziqlantiradi va yumshatadi;
- quruqlik va tashqi ta'sirlardan himoya qiladi;
- yopishqoqlik qoldirmay tezda singib ketadi;
- parvoz va tez-tez sayohatlar uchun juda mos keladi.

Aigner lab balzami

Qulay tuzilishga ega parvarish vositasi:

- lablarni namlaydi va oziqlantiradi;
- haddan tashqari qurib ketish va noqulay iqlim sharoitlaridan himoya qiladi;
- kun davomida qulaylik va parvarish hissini ta'minlaydi.